

ZO‘RAVONLIK VA TAZYIQDAN HIMOYALANISH BO‘YICHA ONLAYN PSIXOLOGIK MASLAHATLAR BERISH TIZIMINI KENGAYTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19331732>

Tadqiqotchilar: **Tursunboyeva Aziza Toxir qizi**

<https://orcid.org/0009-0005-8839-3017>

Muradova Dilnoza Albertovna

<https://orcid.org/0009-0009-3807-1713>

Babayeva Shaxzoda Ubaydullo qizi

Mamatqulova Shohista Dilshod qizi

tursunboyeva03@gmail.com

muradovad837@gmail.com

Shbabayeva95@mail.ru

shohistaurazaliyeva25@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada zo‘ravonlik va tazyiqdan himoyalaniş bo‘yicha onlayn psixologik maslahatlar tizimining ahamiyati, uning amaldagi imkoniyatlari hamda rivojlanish yo‘nalishlari yoritilgan. So‘ngi yillarda jismoniy, psixologik va iqtisodiy zo‘ravonlik holatlarining ortib borayotgani, ayniqsa ayollar va voyaga yetmaganlar orasida ko‘payayotgani ushbu tizimlarning zarurligini yanada oshirmoqda. Mavjud xalqaro va milliy statistik ma‘lumotlar, qonunchilik normalari, shuningdek talabalardan olingan diagnostik test natijalari asosida aholining onlayn psixologik xizmatlardan xabardorlik darajasi, ulardan foydalanishdagi to‘siqlar va ehtiyojlar tahlil qilindi.

Kalit so‘z

Zo‘ravonlik, tazyiq, onlayn yordam, jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, zo‘ravonlikni oldini olish, emotsional zo‘ravonlik, onlayn platforma, ishonch telefonlari.

Аннотация

В данной статье рассматривается значимость онлайн психологических консультаций по защите от насилия и давления, их возможности и направления развития. В последние годы растет количество случаев физического, психологического и экономического насилия, особенно среди женщин и несовершеннолетних, что увеличивает необходимость в таких системах. На основе международной и национальной статистики,

законодательных норм, а также диагностических тестов, проведенных среди студентов, анализируется уровень осведомленности населения о онлайн психологических услугах, препятствия для их использования и потребности.

Ключевые слова

насилие, давление, онлайн помощь, физическое насилие, сексуальное насилие, семейное насилие, предотвращение насилия, эмоциональное насилие, онлайн платформа, телефоны доверия.

Abstract

This article discusses the importance of online psychological consultations for protection against violence and abuse, their current capabilities, and development directions. In recent years, the increase in physical, psychological, and economic violence, particularly among women and minors, has further highlighted the need for such systems. Based on international and national statistical data, legal norms, and diagnostic test results obtained from students, the level of public awareness about online psychological services, barriers to their usage, and needs are analyzed.

Keywords

violence, abuse, online assistance, physical violence, sexual violence, domestic violence, violence prevention, emotional violence, online platform, helplines.

Kirish

So‘nggi yillarda jamiyatda psixologik, jismoniy va iqtisodiy zo‘ravonlik holatlarining ortib borishi, ayniqsa ayollar va voyaga yetmagan bolalar orasida ko‘payishi global darajadagi muammo sifatida ko‘rilmoqda. Mazkur tadqiqotda zo‘ravonlik deganda shaxsga, boshqa shaxsga yoki jamiyatga nisbatan jismoniy kuch yoki hokimyatdan qasdan foydalanish orqali psixologik, jismoniy yoki ijtimoiy zarar yetkazishga olib keladigan harakatlar tushuniladi²⁹. Xususan, bu kabi zo‘ravonlik holatlari BMT, JSST tomonidan jiddiy tahdid sifatida baholanadi. BMTning “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish to‘g‘risidagi deklaratsiyasi” (1993) da qayd etilishicha, zo‘ravonlik faqatgina jismoniy emas, balki psixologik va emotsional shakllari ham inson huquqlari va erkinligiga jiddiy tajovuz deb qaraladi³⁰. Ko‘pchilik davlatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham zo‘ravonlik va tajavuz holatlari keskin qoralanadi. Bu kabi holatlarni oldini olish va ayollar,

²⁹ World Health Organization. World Report on Violence and Health. – Geneva: WHO, 2002. – URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9241545615>

³⁰ Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish to‘g‘risidagi deklaratsiya.–BMT Bosh assambleyasi,1993,–URL: <https://www.un.org>

bolalar huquqlarini himoya qilish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasining ikkinchi bandida takidlanganday, “Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shavqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomilaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas”³¹.

Bundan tashqari 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham xotin-qizlarni qo‘llab-quvatlash tizimini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish, gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha aniq izchil vazifalar belgilangan³².

Mazkur maqolada zo‘ravonlik va tazyiq holatlari, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda jamiyat qarashlarini o‘zgartirish borasidagi nazriy tushunchalar, mavjud qonunchilik normalari hamda onlayn psixologik maslahat tizimini kengaytirish, jamoatchilikda zo‘ravonlik va tazyiqholatlariga qarshi immunitet hosil qilish bo‘yicha amaliy takliflar yoritiladi. Bu esa zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan ayollar hamda voyaga yetmagan bolalarga psixologik ko‘mak ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra 2025 yilning birinchi yarimida respublika bo‘yicha 48303 ta tazyiq va zo‘ravonlik holatlari qayd etilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 121 foizga ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. Eng ko‘p holatlar Toshkent, Buxaro, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari ulushiga to‘g‘ri kelib, 930 nafar xotin qizlarga takroriy himoya orderlari berilgan³³. Bu kabi holatlarining ko‘payib borishi bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, tazyiq va zo‘ravonlikga uchragan va bugungi kunda zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan ayollar va bolalarga psixologik, huquqiy yordam ko‘rsatishni talab qiladi. Ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa ayol-qizlarni huquq va ma‘nafaatlari shu bilan bir qatorda, onlayn psixologik markazlar faoliyati bilan yanada kuchliroq tanishtirib borishimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili

Shu nuqtai nazardan ba‘zi bir statistik ma‘lumotlarga ko‘z yugurtiradigan bo‘lsak, xalqaro manbalarda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatida onlayn psixologik yordamga murojaat qilish darajasi pastligi ta‘kidlanadi (UN Women, 2023; WHO, 2022)³⁴. Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda ham

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(yangi tahrir).(2023).Toshkent.O‘zbekiston-64b

³² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni (2023).

³³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati (2025). Senator M. Kadirxanovning Oila va xotin-qizlar qo‘mitasiga yuborgan so‘rovi.

<https://senat.uz/oz/senator-request/post-3962>

³⁴UN Women.Progress on the Sustainable Development Goals: The gender snapshot 2023.–New York:UN Women,2023.-URL:

shunga o'xshash tendensiyalar kuzatiladi. UNFPA (2022) tomonidan amalga oshirilgan monitoring natijalariga ko'ra, ayollarning atigi 15-25 foizi mavjud yordam markazlari haqida ma'lumotlarga ega. Onlayn psixologik xizmatlar esa aholining kichik qatlami – taxminan 10 foizi tomonidan bilinishi ko'rsatiladi³⁵.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, G Petrunov Jinsiy zo'ravonlik haqida habar bermaslikning ko'p darajali omillari sifatida uch guruhga bo'lib o'tadi: mikro omillar (hissiy bog'liqlik, iqtisodiy qaramlik), mezzo omillar (oilalar, rasmiy va norasmiy institutlar), makro omillar (ma'lum bir davlatda qabul qilingan madaniy me'yorlar)³⁶.

E. Gracia ayollarga nisbatdan zo'ravonlikni "aysberkning ko'rinmas tomoni" sifatida ta'riflab, zo'ravonlik haqida habar bermaslikni ijtimoiy muhitdagi beparvolik bilan bog'laydi³⁷. Ya'ni zo'ravonlikka uchragan ayolni o'rab turgan ijtimoiy muhit (oilalar, do'stlar, qarindoshlar, qo'shnilar, hamkasblar) bu tazyiq va zo'ravonlikni ko'ra bila turib bunga ko'z yumushi.

S. Muhammad-Farooqqa ko'ra "Zo'ravonlik oilaning "ichki siri" hisoblanadi, jamiyatga oshkor qilish uyat va aybdorlik shaklida ko'riladi"³⁸. Ya'ni ko'pincha ayollar oilaning obro'sini saqlash, farzandlar kelajagi sharti bilan sukut saqlaydi.

Latipova va hammualliflar ta'kidlaganidek, zo'ravonlik holatining yashirilishi jamiyatda chuqur ildiz otgan stereotiplar: oilaviy zo'ravonlik "oilaviy masala" sifatida qaraladi va bunga na huquqni muhofaza qiluvchi organlar, na mahalla, na mutaxassislar aralashishi kerak deb hisoblanadi³⁹.

Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, zo'ravonlikka uchragan ayollar, bolalar, qaryalarning katta qismi rasmiy idoralarga murojaat qilmaydi.

O'zbekiston sharoitida buning bir qancha sabablarini sanab o'tishimiz mumkin:

1. Uyat, ijtimoiy bosim, qarindoshlar tomonida to'xtatib qo'yish;
2. Zo'ravon sherikdan qo'rqish, moliyaviy qaramlik;
3. Qariyalarda yakkalanib qolishdan qo'rqish;

<https://www.unwomen.org>

³⁵ UNFPA. State of World Population 2022: Seeing the Unseen. – New York: UNFPA, 2022. – URL:

<https://www.unfpa.org>

³⁶ Petrunov, G. (2025). Hamkorlar o'rtasidagi zo'ravonlik haqida xabar berishning ko'p darajali omillari: Bolgariya misoli. Jamiyatlar, 15 (10), 265.

<https://doi.org/10.3390/soc1510026>

³⁷ Gracia E. Unreported cases of domestic violence against women: towards an epidemiology of social silence, tolerance, and inhibition. J Epidemiol Community Health. 2004 Jul;58(7):536-7. doi: 10.1136/jech.2003.019604. PMID: 15194711; PMCID: PMC1732820.

³⁸ Muhammad-Farooq, S., Abdul-Rahman, S., & Haider, S. (2017). Why women suffer domestic violence in silence. Nursing Practice Today, 4(2), 90–95.

³⁹ Latipova, N. M., et al. (2020). Family violence in modern Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 377–388.

4. Yordam olishuchun markazlarga borishning murakkabligi yoki bundan mutlaqo xabardorsizlik.

Statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, reabilitatsiya qilish markazlariga va ichki ishlar organlari ro'yxatida turadigan zo'ravonlik holatlari juda kam foizlarni tashkil qiladi. Shu sababli O'zbekiston sharoitida anonim, tezkor va maxfiy onlayn yordam markazlari faoliyatining kuchaytirilishi, zo'ravonlikni erta bosqichlarda aniqlashning real va xavfsiz yo'llaridan biri deb ayta olamiz. BMTning CEDAW qo'mitasi O'zbekiston bo'yicha tavsiyalarida raqamli va masofaviy psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadi⁴⁰. Bu xalqaro majburiyatlar bilan ham mos keladi.

Aytilgan fikrlar tadqiqot mavzusining nazariy asoslarini belgilab beradi. Endilikda ushbu nazariy qarashlar asosida tadqiqot metadalogiyasi ishlab chiqildi va quyda yoritiladi.

Metodologiya

Tadqiqot ishtirokchilari.

Ushbu tadqiqotning empirik bazasini oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan jami 32 nafar talaba tashkil etdi. Respondentlarning jinsiy tarkibi 4 nafari (12,5%) erkak va 28 nafar (87,5%) ayol talabalardan iborat bo'lib, bu taqsimot tahlilining gender qamrovini aniqlashda yordam berdi. Ishtirokchilarning akademik yo'nalishi bo'yicha farqlar shunday ko'rinish oldi 1-PS yo'nalishidan 8 nafar, 1-XT yo'nalishidan 24 nafar. Tadqiqotga jalb qilish jarayoni ixtiyoriylik, maxfiylik va anonimlik prinsiplari asosida amalga oshirildi, bu esa ma'lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot vositalari.

Tadqiqotda zo'ravonlik, psixologik yordam va xavfsiz maslahat olish tizimlari bo'yicha talabalar xabardorligini baholashga qaratilgan diagnostic test savollari qo'llanildi. Test tarkibida 11ta yopiq turdagi, dichotamik (to'g'ri / noto'g'ri) savolardan iborat bo'lib, ular quyidagi mazmuniy bloklarni qamrab oladi:

1. Zo'ravonlik va uning shakllari to'g'risidagi bilimlar
2. Psixologik yordam infratuzilmalari bo'yicha xabardorlik
3. Onlayn maslahat tizimlarining xavfsizligi va ishonchliligi

⁴⁰ UN Committee on the Elimination of Discrimination against Women (CEDAW). (2020/2022/2024 – O'zbekiston bo'yicha yakuniy tavsiyalar). Concluding observations on the sixth periodic report of Uzbekistan. United Nations.
<https://tbinternet.ohchr.org/>

4. Huquqiy himoya mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari

Har bir savollar bo'yicha to'g'ri va noto'g'ri javoblar soni, shuningdek, ularga mos foiz ko'rsatgichlari aniqlanib, deskriptiv statistik modelda qayd etildi.

Tadqiqotning o'tkazilish tartibi

Empirik tadqiqot ochiq o'quv mashg'uloti doirasida tashkil etildi. Mashg'ulotning metodik asosini interaktiv taqdimot, muhokama, hamda zo'ravonlikka doir real vaziyatlar asosida reflektiv tahlil qilish jarayonlari tashkil etdi. Talabalarda mavzuga nisbatan kognitiv faollikni kuchaytirish maqsadida qo'shimcha flayrlar tarqatildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va statistik tahlil

Yigilgan ma'lumotlar deskriptiv statistika usullari yordamida qayta ishlandi va har bir savol bo'yicha quyidagi ko'rsatgichlar aniqlandi;

- To'g'ri javoblar chastotasi;
- Noto'g'ri javoblar chastotasi;
- Foiz taqsimotlari;
- Xabardorlik darajasidagi farqlar.

Natijalar

Tadqiqotda olingan empirik ma'lumotlar deskriptiv statistika yordamida qayta ishlanib, quyda respondentlarning umumiy taqsimoti hamda test savollari bo'yicha javoblarning foiz ifodalari keltirildi.

1-jadval. Sinaluvchilarning to'g'ri va noto'g'ri javob ko'rsatkichlari⁴¹.

Savollar	To'g'ri javoblar soni	Noto'g'ri javoblar soni	To'g'ri javob %	Noto'g'ri javob %
Kiber-zo'ravonlik faqat haqoratli xabarlarni yuborish bilangina cheklanadimi	31	1	96,90%	3,10%
Ish joyidagi yoki o'quv jarayonidagi doimiy tahqirlash va obro'sizlantirish psixologik zo'ravonlik hisoblanadimi?	29	3	90,63%	9,37%
Zo'ravonlikka uchragan shaxs, agar uning isboti bo'lmasa, yordam so'rab hech qanday tashkilotga murojaat qila olmaydimi?	22	10	68,75%	31,25%
O'zbekistonda maishiy zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxs Himoya orderi (qo'riqlash buyrug'i) olish huquqiga egami?	25	7	78,12%	21,88%
Onlayn psixologik maslahat tizimi anonimlikni ta'minlamasa ham, foydalanish xavfsiz hisoblanadimi?	26	6	81,25%	18,75%


⁴¹ Muallif tomonidan bajarilgan.

Talaba o'qituvchisi tomonidan tazyiqqa uchrasa, bu haqda ta'lim muassasasining o'zida yordam so'rab murojaat qilish huquqiga egami?	31	1	96,90%	3,10%
Agar biror kishi o'zining shaxsiy munosabatlari haqidagi ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatsa, bu zo'ravonlik emas, balki shaxsiy ish hisoblanadimi?	15	17	46,88%	53,12%
Yordam so'rash uchun faqat jismoniy zo'ravonlikka uchragan bo'lish shartmi?	29	3	90,63%	9,37%
Onlayn maslahat xizmatlari faqat og'ir ruhiy muammolarda yordam beradimi, oddiy stressda yordam bermaydimi?	18	14	56,25%	43,75%
Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda, maslahatchi bilan video qo'ng'iroq orqali gaplashish to'liq anonim hisoblanadimi?	19	13	59,37%	40,63%
"1146" Ishonch telefonidan xabardormisiz?	11	21	34,38%	65,62%

Testda jami 32 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Ulardan 4 nafari (12,5%) o'g'il bolalar, 28 nafari (87,5%) qiz bolalardan iborat. Savollarga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilar zo'ravonlikning turlari bo'yicha yetarlicha xabardor. Kiber zo'ravonlikning mazmuni, psixologik tazyiqning belgilarini aniqlash, hamda ma'sul muassasalarga murojaat qilish tartibi bo'yicha 90 foiz talabalar ha deb javob bergan.

Shu bilan birga, bir qator savollarga yo'q javoblar ko'rsatgichi yuqori ekanligi qayd etilgan. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatishni 53,12 foiz talabalar zo'ravonlik sifatida baholashmagan. Onlayn psixologik maslahatlar bo'yicha ham chalkash tushunchalar mavjud bo'lib, 43,75 foiz talabalar bunday xizmatlar faqat o'g'ir ruhiy muammolarda qo'llaniladi deb hisoblagan. Eng past ko'rsatgich "1146" ishonch telefonlaridan xabardorlikka ta'luqli bo'lib, talabalarning atigi 34,38 foizi ushbu raqamdan xabardor ekanligini bildirgan.

1-rasm. To'g'ri va noto'g'ri javoblarning taqsimoti⁴².



Olingan natijalar zo‘ravonlikdan himoyalaniish bo‘yicha onlayn maslahatlar tizimlari haqida ma‘lumot berish, profilaktik yo‘nalishdagi targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va talabalarda raqamli xavfsizlik bo‘yicha ongni oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama.

Yuqoridagi so‘rovnomaning tahlil natijalari talabalarning qonunlardan va amaliy yordam kanallaridan yetarlicha xabardor emasligini qayd etadi. Undan tashqari yoshlar o‘rtasida yordam so‘rash, ba‘zi ro‘y berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarning aynan zo‘ravonlik ekanligini anglab yetish darajasi pastligi, zo‘ravonlikka oid himoyaga muhtojlik hissining sustligini bildiradi. Bu izlanishlar yoshlarning muammoga duch kelganda mustaqil yechim izlashga moyil bo‘lishini, rasmiy xizmatlarga murojaat qilishga esa ikkilanishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston hududida “Inson” ijtimoiy himoya markazlari tashkil etilgan. Bu markazlarning faoliyati bo‘yicha normativ hujjatlar aholiga, xususan, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan guruhlar uchun kompleks va bepul xizmatlar taqdim etilishi belgilangan. Ammo shunga qaramay talabalarning xabardorlik darajasi pastligicha qolmoqda.

Talabalar o‘rtasida kiberzo‘ravonlik tushunchasining keng tarqalgan holda anglanishi – zamonaviy axborot makonida bu mavzuning yoritilishi yuqoriligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat amaliyotda ham kutilgan edi.

⁴² Muallif tomonidan bajarilgan.

“1146” ishonch telefonidan xabardorlikning 34,38% bo‘lishi – kutilmagan darajada past. Mazkur holat amaliy ijtimoiy himoya mexanizmlari mavjud bo‘lishiga qaramay, ular haqida yetarli axborot tarqalmaganligini ko‘rsatadi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda “Inson” ijtimoiy himoya markazlari orqali zo‘ravonlik va tazyiqqa uchragan shaxslar uchun himoya orderlarini rasmiylashtirish, psixologik, huquqiy hamda tibbiy xizmatlar ko‘rsatish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, zarur hollarda jabrlangan shaxslar vaqtinchalik boshpana va reabilitatsiya markazlariga yo‘naltiriladi.

Biroq tadqiqot natijalarida aniqlangan past xabardorlik darajasi ushbu tizimlarning real ehtiyojmand guruhlariga yetib bormayotganini ko‘rsatadi. Bu holat yordam tizimlari va yoshlar o‘rtasida axborot uzilishi mavjudligini hamda onlayn va anonim maslahat platformalarini ijtimoiy himoya tizimlari bilan integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Mazkur tadqiqot natijalarini talqin qilishda bir qator cheklovlarni inobatga olish lozim. Avvalo, respondentlar sonining 32 nafar bilan cheklanganligi olingan natijalarni keng populatsiyaga umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, tadqiqot faqat bitta oliy ta‘lim muassasasi doirasida o‘tkazilgani sababli, turli hududlar va ijtimoiy-madaniy omillar ta‘sirini hisobga olish imkoni mavjud emas.

Bundan tashqari, so‘rovnoma savollarining yopiq va dichotomik (ha/yo‘q) shaklda tuzilgani respondentlarning bilim va munosabatlaridagi chuqur farqlarni to‘liq aniqlashga imkon bermagan bo‘lishi mumkin. Tadqiqotda asosan ishtirokchilarning o‘z-o‘zini baholashiga asoslangan ma‘lumotlar yig‘ilganligi sababli, ijtimoiy maqbul javoblar berilishi ehtimoli ham mavjud.

Shuningdek, tadqiqot xabardorlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, respondentlarning real hayotda yordamga murojaat qilish xatti-harakatlarini baholash imkonini bermaydi. Ushbu cheklovlar kelgusidagi tadqiqotlarda kengroq, hududlararo namunalarda asosida, aralash metodlar (so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv) yordamida olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar yoshlar orasida zo‘ravonlikka doir bilimlar mavjud ekanligini ko‘rsatsada, amaliy yordam mexanizmlaridan foydalanish bo‘yicha sezilarli bo‘shliq borligini ko‘rsatadi. Bu esa onlayn psixologik xizmatlar, anonim yordam platformalari va ishonch telefonlarini ommalashtirish zarurligini asoslaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari talabalar orasida zo‘ravonlikning turlari va psixologik tazyiq belgilari bo‘yicha ma‘lum darajada xabardor ekanini, biroq yordam so‘rash tartibi, huquqiy mexanizmlar va onlayn psixologik xizmatlardan foydalanish

boorasida bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatish zo'ravonlik deya baholanmasligi hamda "1146" ishonch telefonkam darajada xabardorlik xovotirli holat sifatida baholanishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar (BMT, UN Women, WHO) ham raqamli yordam platformalarini rivojlantirishni zo'ravonlikka qarshi kurashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, "O'zbekiston -2030 strategiyasi" da xotin-qizlar xavfsizligini ta'minlash va raqamli psixologik yordamni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan. Shu jumladan "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, zo'ravonlikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish va psixologik yordam tizimini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir" deya alohida ta'kidlab o'tilgan. Bu kabi qonunlar, ta'kidlovlarni bugungi kunda xalqaro hujjatlar va deklaratsiyalarda ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Xususan, WHO(JSST) ning "Zo'ravonlik bo'yicha global hisoboti" da ta'kidlanishicha "Zo'ravonlik jamiyat sog'ligi uchun eng jiddiy global tahdidlardan biri bo'lib, har yili millionlab ayollar va bolalar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi". Bugungi kunda vujudga kelayotgan zo'ravonlikning har qanday turi va ko'rinishi jamiyat rivoji va ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u yoshlar orasida mavjud xabardorlik darajasi va bo'shliqlarni aniqlab, profilaktika, targ'ibot va raqamli maslahat tizimlarini takomillashtirish uchun yo'nalishlar beradi.

Amaliy tavsiyalar:

"1146" kabi ishonich telefonlari va onlayn chat xizmatlarini ommalashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida "Zo'ravonlikdan himoyalanih" mavzusida muntazam seminarlar o'tkazish.

Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash, psixologik tazyiq belgilarini tanish bo'yicha treninglar tashkil etish.

Onlayn platformalarda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qiluvchi texnik vositalarni joriy etish.

Foydalanuvchi identifikatsiyasini talab qilmaydigan anonym chatlarni yo'lga qo'yish.

Psixologlar uchun maxsus trening va superviziya dasturlarini yo'lga qo'yish.

Masofaviy maslahat berish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha sertifikatlashtirilgan kurslar tashkil etish.

Himoya orderlari haqida aholi xabardorligin oshirish.

Onlayn murojaat platformalarining tezkor ishlashi uchun yagona elektron ba'zani yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization. World Report on Violence and Health. – Geneva: WHO, 2002. – URL:
<https://www.who.int/publications/i/item/9241545615>
2. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish to‘g‘risidagi deklaratsiya. – BMT Bosh assambleyasi, 1993, –URL <https://www.un.org>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). (2023). Toshkent. O‘zbekiston -64 b
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategyasi to‘g‘risidagi farmoni (2023).
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati (2025). Senator M. Kadirxanovaning Oila va xotin-qizlar qO‘mitasiga yuborgan so‘rovi.
<https://senat.uz/oz/senator-request/post-3962>
6. UN Women.Progress on the Sustainable Development Goals: The gender snapshot 2023.–New York: UN Women,2023.
URL:<https://www.unwomen.org>
7. UNFPA. State of World Population 2022: Seeing the Unseen. – New York: UNFPA, 2022. –
URL:<https://www.unfpa.org>
8. Petrunov, G. (2025). Hamkorlar O‘rtasidagi zo‘ravonlik haqida xabar berishning ko‘p darajali omillari: Bolgariya misoli. Jamiyatlar, 15 (10), 265.
<https://doi.org/10.3390/soc1510026>
9. Gracia E. Unreported cases of domestic violence against women: towards an epidemiology of social silence, tolerance, and inhibition. J Epidemiol Community Health. 2004 Jul;58(7):536-7. doi: 10.1136/jech.2003.019604. PMID: 15194711; PMCID: PMC1732820.
10. Muhammad-Farooq, S., Abdul-Rahman, S., & Haider, S. (2017). Why women suffer domestic violence in silence. Nursing Practice Today, 4(2), 90–95.
11. Latipova, N. M., et al. (2020). Family violence in modern Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 377–388.
12. UN Committee on the Elimination of Discrimination against Women (CEDAW). (2020/2022/2024 – O‘zbekiston bo‘yicha yakuniy tavsiyalar). Concluding observations on the sixth periodic report of Uzbekistan.United Nations. <https://tbinternet.ohchr.org/>